



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 264 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash 10	Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari 14	Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari 19	Dadonova Aziza Tulkunovna
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili 23	Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi 30	Tuksanova Zilola Izatulloyevna
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili 35	Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi 41	Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish 47	Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli 50	Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari 54	Qobilov Voxidjon Zoxidovich
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку 58	Мухамеджанова Римма Рашидовна
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari 66	Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili 70	Sadriddinova Feruza Meliyevna
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish 75	Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar 80	Qudratov O'ktam G'ofurovich
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari 85	Tursunov Xusniddin Isomovich
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari 88	Safarova Halovat Barnoyevna
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari 91	Yusupova Maftuna Ilxomidin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap) 97	Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li
Tizimli yondashuv asosida talabalarning raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli 101	Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
<i>Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna</i>	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
<i>Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
<i>Sabina Saitmurodova Olim qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
<i>Komolova Iroda Xamidullayevna</i>	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
<i>Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi</i>	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
<i>Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
<i>Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna</i>	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
<i>G'aniyeva Maloxat Odilovna</i>	
Ruhiiy salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
<i>Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva</i>	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
<i>Shasaidova Lola Shamaksudovna</i>	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
<i>Сейтова З. П.</i>	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'garak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari.....	153
<i>Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna</i>	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
<i>Okilova Kamola Sadulloevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarda antisotsial xulq-atvorning oldini olishning pedagogik mexanizmlari ..	166
<i>Davronova Zarrina Baxtiyorovna</i>	
Yapon tilini o'qitishda らしい (rashii) evidentsiallik ko'rsatkichini o'rgatishning pedagogik xususiyatlari	173
<i>Musayeva Aziza Ibrohim qizi</i>	
Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari va metodik imkoniyatlari.....	178
<i>Sharipova Shaxnoza Xasanovna</i>	
Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi.....	183
<i>Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna</i>	
Tibbiy ta'lim klasterida talaba markazlashgan muhitni shakllantirish: kredit-modul sharoitida intellektual adaptiv tyutorlik texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari	188
<i>Ibragimova Venera Azadovna</i>	
Turli yosh davrlarida perfektsionizm va maqullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.....	193
<i>Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna</i>	
Frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari	197
<i>Raxmonova Gavhar Nuritdinovna</i>	
Development of adolescent thinking and its psychodiagnostics and psychocorrection	202
<i>Samarova Shoxista Rabidjanovna</i>	
Jadid pedagogik konsepsiyasi va zamonaviy ta'lim tizimi integratsiyasi: tarixiy-pedagogik tahlil va amaliy yo'nalishlar	209
<i>Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna</i>	

Kredit-modul tizimi asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi	213
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich	
Modern Socio-Psychological Trends in the Study of Emotional Alienation	219
Yangibaeva Dildorakhon Rakhmon kizi	
O'quv-mashq guruhi futbolchilarining jismoniy tayyorgarligi.....	225
Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li	
Sport ta'limida axborot bilan boyitilgan o'quv muhitini yaratish va vizualizatsiya vositalarining didaktik imkoniyatlari	230
Muxitdinova Nigora Mexriddinovna	
Bo'lajak mutaxassislarda yangi avlod darsliklari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	236
Abdujalilov Farruxbek Po'latjon o'g'li	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlari.....	239
Robiya Toshpo'latova Akmal qizi, X. A. Asqarova	
Aralash ta'limning pedagogik mohiyati va didaktik tamoyillari.....	244
Azerbayeva Elmira Muratbayevna	
Texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini tashkil qilish	248
Niyazova Bibiniso Boltayevna	
Estetik tarbiya va ruhiy go'zallik: san'at va adabiyotga muhabbat orqali shaxsdagi buzg'unchi xulq-atvorning oldini olish.....	253
Nigora Yo'ldasheva Sodiqjon qizi	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarini loyihalash-konstruksiyalash faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	259
Xolmo'minova Shahnoza Gulyam qizi	

SPORT TA'LIMIDA AXBOROT BILAN BOYITILGAN O'QUV MUHITINI YARATISH VA VIZUALIZATSIYA VOSITALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Muxitdinova Nigora Mexriddinovna

Buxoro davlat pedagogika instituti 1-bosqich doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasida ta'lim jarayonlarini axborot bilan boyitish hamda vizualizatsiya vositalaridan foydalanishning pedagogik ahamiyati tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim sharoitida raqamli texnologiyalar, multimedia vositalari va vizual modellashirish usullarining o'quv jarayonidagi o'rni asoslab berilgan. Shuningdek, vizual texnologiyalar yordamida sport mashqlarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish, talabalar motivatsiyasini kuchaytirish va individual yondashuvni ta'minlash masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, sport, axborotlashtirish, vizualizatsiya, pedagogik texnologiyalar, multimedia, motivatsiya, raqamli ta'lim, kompetensiya.

Abstract: This article analyzes the pedagogical significance of enriching educational processes with information and using visualization tools in the field of physical education and sports. The role of digital technologies, multimedia tools, and visual modeling methods in the educational process under modern educational conditions is substantiated. The article also highlights issues related to improving the effectiveness of mastering sports exercises through visual technologies, increasing students' motivation, and ensuring an individual approach.

Key words: physical education, sport, informatization, visualization, pedagogical technologies, multimedia, motivation, digital education, competence.

Аннотация: В данной статье проанализировано педагогическое значение информационного обогащения образовательных процессов в сфере физической культуры и спорта, а также использования средств визуализации. Обоснована роль цифровых технологий, мультимедийных средств и методов визуального моделирования в учебном процессе в условиях современного образования. Также освещены вопросы повышения эффективности освоения спортивных упражнений с помощью визуальных технологий, усиления мотивации студентов и обеспечения индивидуального подхода.

Ключевые слова: физическая культура, спорт, информатизация, визуализация, педагогические технологии, мультимедиа, мотивация, цифровое образование, компетенция.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sport sohasida ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Zamonaviy ta'lim jarayonida axborot bilan boyitilgan muhit yaratish sport ta'limining samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biridir.¹

Axborot bilan boyitilgan o'quv muhiti deganda o'quvchilarga elektron darsliklar, multimedia taqdimotlari, videodarslar, elektron kutubxonalar, internet resurslari va raqamli platformalar orqali bilim berish tushuniladi. Bunday yondashuv natijasida o'quvchilar o'quv materiallarini an'anaviy usullarga nisbatan tezroq va samaraliroq o'zlashtiradilar.²

Sport sohasida axborot texnologiyalaridan foydalanish o'quv jarayonini tashkil etishning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Jumladan, elektron ta'lim platformalari orqali sport nazariyasi, anatomiya, fiziologiya va sport pedagogikasi bo'yicha bilimlarni mustaqil ravishda o'rganish imkoniyati yuzaga keladi. Shu bilan birga, trener

1 Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M.. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.

2 Ishmuhamedov R.. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2014.



va o'qituvchilar mashg'ulot jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va tahlil etishda zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanadilar.³

Zamonaviy ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sport sohasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi. Mazkur yo'nalish nafaqat talabalarning jismoniy salomatligini mustahkamlash, balki ularning irodaviy sifatlarini shakllantirish, psixologik barqarorligini ta'minlash hamda sog'lom turmush tarziga ongli ehtiyojni rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ayniqsa, jismoniy tarbiya jarayoni orqali shaxsda intizom, mas'uliyat, o'zini boshqarish, jamoada ishlash kabi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kompetensiyalar ham shakllanadi. Shu bilan birga, globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimiga tubdan yangi talablarni qo'yimoqda.

Axborot oqimining keskin ortishi, zamonaviy texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda raqamli muhitning ustuvorlik kasb etishi natijasida an'anaviy o'qitish yondashuvlarini qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu esa jismoniy tarbiya va sport sohasida ham o'quv jarayonini tashkil etishning yangi, innovatsion shakl va metodlarini ishlab chiqishni talab etadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida o'quv jarayonini raqamlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish va ta'lim sifatini oshirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish o'quv jarayonining mazmunini boyitish, talabalarning o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda ularning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Ayniqsa, jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash harakat faoliyatini vizual idrok etish, murakkab mashqlarni bosqichma-bosqich tushunish va ularni to'g'ri bajarish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv o'quv jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shu orqali talabalar nafaqat jismoniy jihatdan rivojlanadi, balki ularning tahliliy fikrlashi, refleksiv yondashuvi hamda o'z faoliyatini baholash ko'nikmalari ham takomillashadi.

Natijada, jismoniy tarbiya va sport sohasida axborotlashtirish hamda vizualizatsiya elementlarini joriy etish ta'lim jarayonining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, jismoniy tarbiya jarayonida axborot bilan boyitish va vizualizatsiya vositalaridan foydalanish orqali talabalar faoliyatini faollashtirish, ularning bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda sport mashqlarini ongli ravishda bajarish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Maqsadli natijaga erishish usullarini aniq tushunmaslik pedagogik ta'sirni tashkil etish va amalga oshirish metodlarini izlashni faollashtiradi. Masalan, kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida ishbilarmonlik o'yinlari, loyiha metodlari kabi faol o'qitish usullari keng qo'llaniladi Akhmetov S.M., Belikov V.A., Verbitskiy A.A., Golub M.S., va boshqalar. Biroq davlat tomonidan belgilangan ta'lim maqsadlariga erishishda sezilarli siljishlar kuzatilmaydi. Shu munosabat bilan bilimlarni shakllantirish pedagogik zanjirini chuqur tahlil qilish va yangi imkoniyatlar hamda zamonaviy pedagogik vositalar nuqtayi nazaridan o'qitish jarayonining o'zini qayta ko'rib chiqish zarur.

Pedagogik vositalarning yangilanishi va ta'lim imkoniyatlarining kengayishi, avvalo, uchinchi axborot inqilobi bilan bog'liq bo'lib, u global tarmoq va kompyuter texnologiyalarining paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Agar uchinchi axborot inqilobi birinchi (yozuvning paydo bo'lishi) va ikkinchi (kitob bosishning yuzaga kelishi) inqiloblar bilan taqqoslansa, u olib keladigan o'zgarishlar miqyosi yanada ravshan bo'ladi. Axborot oqimining keskin ortishi ta'lim va tarbiya jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi shubhasiz.

Biroq axborot bilan to'yintirilganlikning ortishi uning tarkibi, inson ongiga ta'siri, insonning unga javob reaksiyasi va yoshlararo o'zaro ta'sirni tashkil etishdagi murakkabliklar bilan ham bog'liq. Axborot inqilobi ijobiy imkoniyatlar bilan birga, an'anaviy ijtimoiy munosabatlarni (ota-ona va bola, ustoz va shogird, murabbiy va sportchi, tengdoshlar o'rtasidagi munosabatlar) o'zgartiruvchi salbiy ta'sirlarni ham yuzaga keltiradi. Shu bois pedagogik hamjamiyat zamonaviy axborot inqilobining imkoniyatlari va xavflarini aniqlashi, ulardan samarali foydalanish hamda salbiy ta'sirlarga qarshi turishni o'rganishi zarur.

Bu borada akademik D.I. Feldshteynning 2009-yilda ilgari surilgan ilmiy qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. U zamonaviy bolalikning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilib, bugungi kunda bola kichik ijtimoiy muhitdan chiqib, keng va murakkab axborot makoniga kirib kelayotganini ta'kidlaydi. Bu makonda axborot oqimi tartibsiz, tizimsiz va ko'pincha nazoratsiz bo'lib, u nafaqat bolaning tafakkuriga, balki uning o'zini anglashiga va dunyoqarashiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Yangi pedagogik yondashuvlarni izlashda ta'limni raqamlashtirish, kompyuter va tarmoq texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu vositalar nafaqat bilim makonini kengaytiradi, balki uni sifat jihatdan o'zgartiradi, axborot oqimini jadallashtiradi va shaxsdan mustaqil ravishda bilimlarni o'zlashtirishni talab qiladi Babaeva V.V., Kalinichenko A.V., Pak N.I., Popova T.I., Kolesova D.V., Telegina E.F., Filippov S.P.

3 UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. Paris, 2018.



Mazkur yondashuv insonning tez o'zgaruvchan dunyoga moslashuvchanligini oshiradi. Chunki bugungi kunda iqtisodiy, texnik va madaniy sohalarida global o'zgarishlar yuz bermoqda. Shu nuqtayi nazardan axborotning jamiyatdagi o'rnini alohida e'tiborga loyiqdir (Mikheylov V.A., 2012). Muallif ta'kidlaganidek, axborotni ishlab chiqarish va tarqatish hajmi shunchalik ortdiki, an'anaviy qayd etish, qayta ishlash va uzatish usullari yetarli samara bermayapti. Bu esa jamiyatning virtualizatsiyasini kuchaytirib, axborotni qulay shaklda olish va undan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Bugungi kunda virtual makon insonni o'qishni o'rganishga o'rgatadigan muhitga aylanib bormoqda.

Yuqorida bayon etilgan fikrlar u yoki bu darajada axborotni nazariy fikrlashni shakllantirishning asosi sifatida ko'rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradi

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida vizual texnologiyalardan foydalanish samaradorligini aniqlash uchun kuzatish, tahlil, so'rovnoma va pedagogik tajriba metodlaridan foydalaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sport ta'limida axborot bilan boyitilgan o'quv muhitini yaratish o'quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda sport mashqlarini to'g'ri bajarish texnikasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar, multimedia vositalari, videodarslar, animatsiyalar, interaktiv taqdimotlar va vizual modellash usullari sport mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish bilan birga, inklyuziv ta'lim imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

An'anaviy sport ta'limida mashqlar ko'pincha o'qituvchining og'zaki tushuntirishi va amaliy ko'rsatmasi orqali o'rgatiladi. Biroq barcha o'quvchilar bir xil tezlikda, bir xil usulda va bir xil darajada o'zlashtira olmaydi. Ayniqsa, jismoniy imkoniyati cheklangan, eshitishida, ko'rishida, harakatlanishida yoki diqqatni jamlashida qiyinchiliklari bo'lgan o'quvchilar uchun sport mashqlarini oddiy og'zaki tushuntirish yetarli bo'lmasligi mumkin. Shu sababli vizualizatsiya vositalari, video ko'rsatmalar, grafik tasvirlar, animatsiyalar, subtitrlar, ovozi izohlar va moslashtirilgan raqamli resurslar inklyuziv sport ta'limida muhim didaktik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Vizual texnologiyalar yordamida sport mashqlarining har bir bosqichini alohida ko'rsatish, harakatni sekinlashtirilgan holatda tahlil qilish, mashq bajarishdagi xatolarni aniqlash va ularni tuzatish imkoniyati yaratiladi. Bu jarayon nafaqat sog'lom o'quvchilar, balki alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan o'quvchilar uchun ham qulay o'quv muhitini shakllantiradi. Chunki har bir o'quvchi o'z imkoniyati, tayyorgarlik darajasi va individual ehtiyojiga mos holda mashqni kuzatishi, takrorlashi hamda o'zlashtirishi mumkin bo'ladi (1-jadval).

1-jadval: Sport ta'limida axborot va vizual texnologiyalarni qo'llash natijalari

Yo'nalish	Natija
Sport mashqlarini o'zlashtirish	Harakat texnikasi video, animatsiya va vizual ko'rsatmalar orqali tezroq va aniqroq tushuniladi
Inklyuziv imkoniyatlar	Turli jismoniy va individual ehtiyojga ega o'quvchilar uchun moslashtirilgan ta'lim muhiti yaratiladi
O'quvchi motivatsiyasi	Darsga qiziqish, faollik va ishtirok etish istagi kuchayadi
Amaliy ko'nikmalar	Mashqlarni bajarishda aniqlik, muvofiqlik va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalari rivojlanadi
Individual yondashuv	Har bir o'quvchining jismoniy tayyorgarligi va imkoniyatiga mos topshiriqlar berish imkoniyati kengayadi
Mustaqil ta'lim	O'quvchilar video darslar, elektron resurslar va raqamli platformalar orqali mustaqil mashq qilish imkoniga ega bo'ladi
Ijtimoiy moslashuv	O'quvchilar o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam, bag'rikenglik va teng ishtirok muhiti shakllanadi
O'qituvchi faoliyati	Darsni rejalashtirish, nazorat qilish, baholash va individual yondashuvni tashkil etish jarayoni takomillashadi

Vizual texnologiyalardan foydalanish, ayniqsa, yengil atletika, gimnastika, futbol, voleybol, basketbol va boshqa sport turlarida murakkab texnik elementlarni o'rgatishda samarali hisoblanadi. Masalan, sakrash, yugurish, to'p uzatish, zarba berish, muvozanat saqlash kabi harakatlarni video va animatsiyalar orqali ko'rsatish o'quvchilarda to'g'ri tasavvur hosil qiladi. Inklyuziv yondashuv asosida esa bu mashqlar o'quvchilarning jismoniy imkoniyatiga qarab soddalashtirilishi, muqobil topshiriqlar bilan boyitilishi yoki yordamchi vositalar



orqali bajarilishi mumkin. Masalan, harakatlanishida qiyinchilik bo'lgan o'quvchilar uchun mashqlar yengillashtirilgan shaklda berilishi, eshittirishda muammosi bo'lgan o'quvchilar uchun video materiallarga subtitrlar va belgili ko'rsatmalar qo'shilishi, ko'rishda qiyinchilik bo'lgan o'quvchilar uchun esa ovoqli izohlar, taktil belgilar va sheriklik asosidagi mashqlar tashkil etilishi mumkin. Bu esa sport ta'limida barcha o'quvchilarning teng ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, axborot bilan boyitilgan o'quv muhiti o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilish qobiliyati va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'quvchi o'z harakatini videoyozuv orqali kuzatib, xatolarini aniqlashi va ularni tuzatishga harakat qiladi. Inklyuziv ta'lim sharoitida bu jarayon o'quvchining o'z imkoniyatini anglashiga, o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishiga va ta'lim jarayonida faol ishtirok etishiga yordam beradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, sport ta'limida vizualizatsiya vositalaridan foydalanish darslarning ko'rgazmaliligini oshiribgina qolmay, balki o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, ularni dars jarayoniga faol jalb etish va sog'lom ijtimoiy-psixologik muhit yaratishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv o'quvchilar o'rtasida o'zaro hurmat, hamkorlik, bag'rikenglik va qo'llab-quvvatlash madaniyatini shakllantiradi. Sport ta'limida axborot va vizualizatsiya vositalaridan foydalanish darslarning sifatini oshiradi, sport mashqlarini o'zlashtirish jarayonini yengillashtiradi hamda ta'limning ko'rgazmalilik, tushunarlik, faollik, individual yondashuv va inklyuzivlik tamoyillarini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu bois axborot bilan boyitilgan va vizual texnologiyalarga asoslangan o'quv muhiti barcha o'quvchilar, jumladan, alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar uchun ham qulay, xavfsiz va rivojlantiruvchi pedagogik maydon sifatida baholanadi.

Vizualizatsiya ta'lim jarayonida ma'lumotlarni tasviriy shaklda ifodalash usuli bo'lib, u insonning axborotni qabul qilish xususiyatlariga asoslanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson ko'rish orqali olingan ma'lumotlarni tezroq qabul qiladi va uzoqroq eslab qoladi. Shu sababli jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida vizual vositalardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.⁴

Jismoniy tarbiya jarayonlarini axborot bilan boyitish ta'limning boshqa yo'nalishlaridan o'zining amaliy yo'naltirilganligi, harakat faoliyatiga bevosita bog'liqligi va ko'rgazmalilik darajasining yuqoriligi bilan farqlanadi. Mazkur jarayon nafaqat nazariy bilimlarni yetkazish, balki ularni amaliy harakatlar bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Shu bois jismoniy tarbiyada axborot bilan boyitish oddiy ma'lumot berishdan iborat emas, balki harakatni tushunish, tahlil qilish va ongli ravishda bajarishga yo'naltirilgan murakkab pedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Avvalo, jismoniy tarbiya jarayonida axborot bilan boyitishning o'ziga xos jihati shundaki, u harakat faoliyatining mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Talaba mashqni bajarish bilan birga uning fiziologik, biomexanik va metodik asoslarini ham anglaydi. Bu esa harakatlarni avtomatik emas, balki ongli va maqsadga muvofiq bajarishga olib keladi. Natijada o'zlashtirish sifati oshadi va xatolar soni kamayadi.

Ikkinchi muhim xususiyat - axborotning vizual va amaliy shaklda uzatilishidir. Jismoniy mashqlarni o'rganishda matnli yoki og'zaki tushuntirish yetarli bo'lmaydi, balki video, animatsiya, grafik modellar kabi vositalar orqali ko'rgazmali tarzda tushuntirish zarur. Bu esa harakatni tezroq idrok etish va eslab qolishni ta'minlaydi. Shu jihatdan jismoniy tarbiya jarayonini axborot bilan boyitish vizualizatsiya bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi.

Yana bir o'ziga xoslik - axborot bilan boyitishning individual-differensial yondashuvni ta'minlash imkoniyatidir. Har bir talabanning jismoniy tayyorgarlik darajasi, qobiliyati va qiziqishlari turlicha bo'lganligi sababli, ularga beriladigan axborot ham moslashtirilgan bo'lishi lozim. Zamonaviy axborot texnologiyalari bu jarayonni samarali tashkil etishga yordam beradi, ya'ni har bir talaba o'z imkoniyatiga mos darajada bilim va ko'nikmalarni egallashi mumkin.


Shuningdek, jismoniy tarbiya jarayonlarini axborot bilan boyitish talabalarning motivatsiyasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Interaktiv materiallar, vizual vositalar va raqamli platformalar o'quv jarayonini qiziqarli va faol shaklga keltiradi. Bu esa talabalarni dars jarayoniga jalb etish, ularning mustaqil ishlashga bo'lgan intilishini kuchaytirish va sog'lom turmush tarziga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Jismoniy tarbiya jarayonlarini axborot bilan boyitishning o'ziga xosligi uning amaliy faoliyat bilan integratsiyalashganligi, vizual ko'rgazmalilikka asoslanganligi, individual yondashuvni ta'minlashi hamda motivatsion muhitni kuchaytirishi bilan belgilanadi. Mazkur yondashuv jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish va talabalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim pedagogik omil hisoblanadi.

1. Jismoniy tarbiya jarayonlarini axborot bilan boyitishning ilmiy-nazariy asoslari

Jismoniy tarbiya tizimi an'anaviy ravishda amaliy faoliyatga yo'naltirilgan bo'lsa-da, zamonaviy pedagogik yondashuvlar bu jarayonni nazariy bilimlar bilan integratsiyalashni talab etadi. Axborot bilan boyitish jarayoni o'quvchilarga harakatlarning ilmiy asoslarini tushuntirish, ularning fiziologik va biomexanik jihatlarini anglash imkonini beradi (1-rasmga qarang).

4 International Olympic Committee. Olympic Values Education Programme. Lausanne, 2022.



1-rasm: Axborot va vizualizatsiya modeli

Axborotlashtirilgan ta'lim muhitida talabalar faqat mashqlarni bajaribgina qolmay, balki ularning mazmuni, ahamiyati va ta'sir mexanizmini tushunishga ham harakat qiladilar. Bu esa ongli o'rganish jarayonini shakllantiradi va o'zlashtirish samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, axborot bilan boyitish quyidagi pedagogik natijalarga olib keladi:

- bilimlarning tizimlilik va izchilligini ta'minlaydi;
- talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantiradi;
- o'quv jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi;
- motivatsiyani ichki ehtiyoj darajasiga olib chiqadi.

2. Vizualizatsiya texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari

Vizualizatsiya ta'lim jarayonida axborotni ko'rgazmali shaklda taqdim etish orqali uni tez va samarali o'zlashtirishga xizmat qiladi. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida vizualizatsiya alohida ahamiyatga ega, chunki harakat faoliyati ko'proq ko'rish orqali o'zlashtiriladi.

Vizual texnologiyalarning asosiy turlari quyidagilar:

- videodarslar va animatsiyalar;
- grafik modellar va diagrammalar;
- sekinlashtirilgan videotahlil;
- interaktiv taqdimotlar va simulyatsiyalar.

Vizualizatsiya quyidagi didaktik afzalliklarni ta'minlaydi:

- murakkab harakatlarni bosqichma-bosqich tushuntirish imkonini beradi;
- xatolarni aniqlash va tahlil qilishni osonlashtiradi;
- o'quvchilarning eslab qolish darajasini oshiradi;
- individual yondashuvni ta'minlaydi.



Natijada, vizual texnologiyalar yordamida jismoniy mashqlarni o'zlashtirish jarayoni tezlashadi va sifat jihatidan yaxshilanadi.

3. Axborot va vizual texnologiyalarni qo'llash metodikasi

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida axborot va vizual vositalardan foydalanish tizimli yondashuvni talab etadi. Ushbu jarayon quyidagi metodik bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. **Motivatsion bosqich** - vizual materiallar orqali qiziqishni oshirish;
2. **Tushuntirish bosqichi** - video va grafiklar asosida izohlash;
3. **Amaliy bosqich** - mashqlarni bajarish;
4. **Tahlil bosqichi** - videotahlil orqali xatolarni aniqlash;
5. **Refleksiya bosqichi** - natijalarni baholash va tuzatish.

Ushbu metodika ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va talabalarning faol ishtirokini ta'minlash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, jismoniy tarbiya va sport sohasida ta'lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil etish hamda vizualizatsiya vositalaridan keng foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, axborot bilan boyitilgan ta'lim muhiti o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va o'quv materiallarini chuqurroq o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Bunday muhitda taqdim etilayotgan ma'lumotlar turli ko'rinishlarda - matn, rasm, video, animatsiya va interaktiv platformalar orqali yetkazilishi o'quvchilarning idrok qilish jarayonini yengillashtiradi.

Vizualizatsiya vositalaridan foydalanish, ayniqsa, sport texnikalarini o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Harakatlarning ketma-ketligi, to'g'ri bajarilish mexanizmi va texnik jihatlari vizual ko'rinishda namoyish etilganda, o'quvchilar ularni tezroq tushunadi va amaliyotda samarali qo'llay oladi. Bu esa murakkab harakat faoliyatlarini o'zlashtirish jarayonini optimallashtiradi hamda xatolar sonini kamaytiradi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar interaktivlikni ta'minlaydi. Interaktiv metodlar orqali o'quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etadilar, fikr almashadilar, o'z bilimlarini amalda sinab ko'radilar. Natijada ta'lim jarayoni bir yo'nalisli emas, balki o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali hamkorlikka asoslangan tizimga aylanadi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodikaning amaliy samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali tasdiqlandi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, mazkur metodika asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi, texnik ko'nikmalari va nazariy bilimlari darajasini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois taklif etilgan yondashuvni jismoniy tarbiya va sport ta'limi tizimiga keng joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ашмарин Б.А. Теория и методика физического воспитания. - М., 2010.
2. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. - М., 2008.
3. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. - М., 2012.
4. Захарова А. Метафоры визуализации / А. Захарова, А. Шкляр // Научная визуализация. - 2013. - Т.5. - № 2. - С. 16-24.
5. Запорожец А.В. Развитие произвольных движений / А.В. Запорожец. - М.: Изд-во АПН РСФСР, 1960. - 430 с.
6. Выготский Л.С. Проблема возраста / Л.С. Выготский // Собрание сочинений в 6 т. - М.: Педагогика, 1984.- Т 4. - С. 244-300.
7. Бабаева В.В. Реализация инновационных технологий в процессе подготовки будущих преподавателей профессионального образования / Бабаева, В.В. // Молодой ученый. - 2012. - № 8. - С. 306-308.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.